

**“TASDIQLANGAN”
“O‘zkimyosanoat” AJ
Kuzatuv kengashi majlisining
2023-yil 20-fevraldagi
9-son bayonnomasi
5-ilovasiga muvofiq**

**“O‘ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
ICHKI AUDIT XIZMATI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI
(yangi tahrir)**

Toshkent – 2023-yil

**«УТВЕРЖДЕНО»
согласно приложению 5
протокола заседания
Наблюдательного совета
АО «Узкимёсаноат»
от 20 февраля 2023 года № 9**

**ПОЛОЖЕНИЕ
О СЛУЖБЕ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА
АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА «УЗКИМЁСАНОАТ»
(новая редакция)**

Ташкент – 2023 год

НОВАЯ РЕДАКЦИЯ	YANGI TAHRIR
<p style="text-align: center;">Раздел - I. Общие положения</p> <p>1.1. Настоящее Положение разработано в соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию рынка ценных бумаг» от 27 сентября 2006 года № ПП-475 и постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по обеспечению эффективного управления предприятиями с государственной долей в уставном фонде и надлежащего учета государственного имущества» от 16 октября 2006 года № 215.</p> <p>1.2. В целях настоящего Положения используются следующие понятия: Общество – АО «Узкимёсаноат»; Наблюдательный совет – орган управления Общества; Правление – коллегиальный исполнительный орган Общества; Внутренний аудит – деятельность структурного подразделения Общества (Службы внутреннего аудита) по контролю и оценке работы Правления и структурных подразделений Общества путем проверок и мониторинга соблюдения ими актов законодательства Республики Узбекистан, учредительных и внутренних документов, обеспечения полноты и достоверности отражения данных в бухгалтерском учете и финансовой отчетности, установленных правил и процедур осуществления хозяйственных операций, сохранности активов, а также внедрения принципов корпоративного управления; Служба внутреннего аудита - структурное подразделение Общества, осуществляющее внутренний аудит, создаваемое с учетом требований, установленных настоящим Положением, решением Наблюдательного совета Общества.</p>	<p style="text-align: center;">I bo'lim. Umumiy qoidalar</p> <p>1.1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2006-yil 27-sentabrdagi PQ-475-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2006-yil 16-oktabrdagi 215-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.</p> <p>1.2. Mazkur Nizom maqsadlari uchun quyidagi tushunchalardan foydalaniladi: Jamiyat – “O‘zkimyosanoat” AJ; Kuzatuv kengashi – Jamiyatning boshqaruv organi; Boshqaruvi – Jamiyatning kollegial ijroiya organi; Ichki audit – Jamiyat boshqaruvi va tarkibiy bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, ta‘sis hujjatlariga va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo‘li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma‘lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to‘liqliligi va ishonchliligini ta‘minlash, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi hamda korporativ boshqarish prinsiplari joriy etilishi bo‘yicha Jamiyat tarkibiy bo‘linmasining (Ichki audit xizmati) faoliyati;</p> <p>Ichki audit xizmati - mazkur Nizom talablarini hisobga olingan holda Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan tashkil etiladigan ichki auditni amalga oshiradigan Jamiyatning tarkibiy bo‘linmasi.</p>
<p style="text-align: center;">Раздел - II. Основные задачи и функции Службы внутреннего аудита</p> <p>2.1. Основными задачами Службы внутреннего аудита являются: 2.1.1. обеспечение Наблюдательного совета Общества достоверной информацией и подготовка предложений по совершенствованию деятельности Общества по результатам осуществления внутреннего аудита. 2.1.2. оперативное внесение Правлению Общества рекомендаций по устранению выявленных в процессе внутреннего аудита недостатков, осуществление контроля над их устранением; 2.1.3. обеспечение защиты прав и законных интересов всех акционеров, в том числе миноритарных. 2.2. Основными функциями Службы внутреннего аудита являются: 2.2.1. осуществление внутреннего аудита (ежеквартально и по итогам</p>	<p style="text-align: center;">II bo'lim. Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari</p> <p>2.1. Quyidagilar Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi: 2.1.1. Jamiyat Kuzatuv kengashini ishonchli axborot bilan ta‘minlash va ichki auditning amalga oshirilishi natijalari bo‘yicha Jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash. 2.1.2. Ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Jamiyat boshqaruviga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish. 2.1.3. Barcha aksiyadorlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, shu jumladan, minoritar aksiyadorlarni. 2.2. Quyidagilar Ichki audit xizmatining asosiy funksiyalari hisoblanadi: 2.2.1. Har yili Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq</p>

<p>отчетного года) путем проведения соответствующих проверок по направлениям, указанным в подпунктах 6.1.1. - 6.1.7. настоящего Положения, в соответствии с ежегодно утверждаемым Наблюдательным советом Общества планом;</p> <p>2.2.2. проведение экспертизы заключаемых Обществом хозяйственных договоров на предмет их соответствия требованиям законодательства;</p> <p>2.2.3. оказание Обществу методической помощи при ведении бухгалтерского учета и составлении финансовой отчетности, консультирование их по вопросам финансового, налогового, банковского и иного законодательства;</p> <p>2.2.4. оказание содействия Наблюдательному совету и Правлению Общества в разработке технических заданий, оценке предложений внешних аудиторских и оценочных организаций, а также подготовка рекомендаций при выборе внешней аудиторской организации для проведения аудиторской проверки;</p> <p>2.2.5. мониторинг исполнения решений Наблюдательного совета;</p> <p>2.2.6. изучение и выдача рекомендаций по предполагаемой крупной сделке, сделки с аффилированным лицом Общества, или крупной сделки с аффилированным лицом Общества.</p> <p>2.2.7. координация деятельности Службы внутреннего аудита дочерних хозяйственных обществ предприятия и контроль за их финансово-хозяйственной деятельностью, в случае необходимости.</p>	<p>mazkur Nizomning 6.1.1. – 6.1.7. kichik bandlarida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tegishli tekshirishlar o‘tkazish yo‘li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo‘yicha);</p> <p>2.2.2. Jamiyat tomonidan tuziladigan xo‘jalik shartnomalarining qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o‘tkazish;</p> <p>2.2.3. Buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda Jamiyatga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonunchilik masalalari bo‘yicha maslahatlar berish;</p> <p>2.2.4. Texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik va baholovchi tekshirishlarini o‘tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda Jamiyatning Kuzatuv kengashiga va Boshqaruviga ko‘maklashish;</p> <p>2.2.5. Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini monitoring qilish;</p> <p>2.2.6. Bo‘lajak yirik bitim, Jamiyatning affilangan shaxsi bilan bitim yoki Jamiyatning affilangan shaxsi bilan yirik bitimni o‘rganish va tavsiya berish.</p> <p>2.2.7. Korxonaning shu‘ba xo‘jalik jamiyatlari ichki audit xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish va zaruratga qarab ularning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish.</p>
<p>2.3. На основе международного стандарта ISO 37001: 2016 в области борьбы с коррупцией:</p>	<p>2.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ISO 37001:2016 xalqaro standartlari asosida:</p>
<ul style="list-style-type: none"> - внесение имеющихся коррупциогенных факторов и рисков в отделах и направлениях в ежегодный план аудиторской проверки для проведения соответствующих мероприятий совместно со Службой Комплаенс Общества; - внесение вопросника (критерии) на предмет наличия коррупционных рисков по каждому объекту аудиторской проверки, анализ нарушения системы менеджмента в борьбе с коррупцией и обеспечение их объективного рассмотрения; - в целях обеспечения прозрачности и объективности проведения аудиторской проверки возможность привлечения сотрудников департамента или отделов, которые не подпадают под аудиторскую проверку либо сторонних специалистов; - внесение предложений в отчет по выявленным коррупциогенным факторам и их устранению по итогам аудита. 	<ul style="list-style-type: none"> - korrupsiogen omillar va korrupsion xavf-xatarlar mavjud bo‘lim va yo‘nalishlarda auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha yillik rejaga kiritadi va Jamiyat Komplayens xizmati bilan birgalikda mazkur tadbirlarni amalga oshiradi; - har bir obyekt bo‘yicha auditorlik tekshiruv dasturlarida korrupsion xavf-xatarlar mavjudligi bo‘yicha savolnoma (mezonalarni) kiritadi va xolisona ko‘rib chiqilishini ta‘minlaydi; - audit obyektivligi va xolisligini ta‘minlash maqsadida audit tekshiruviga tushmaydigan boshqa departament yoki bo‘limning xodimlarini, ayrim hollarda uchinchi tomon mutaxassislarini jalb qilishi mumkin; - audit yakuni bo‘yicha hisobotga aniqlangan korrupsiogen omillar va ularni kamaytirish yoki oldini olish bo‘yicha takliflar beradi.
<p>Раздел - III. Права и обязанности Службы внутреннего аудита</p>	<p>III bo‘lim. Ichki audit xizmatining huquq va majburiyatlari</p>
<p>3.1. Служба внутреннего аудита имеет право:</p> <p>3.1.1. получать документы Общества (приказы, распоряжения руководителя, решения органов управления, справки, расчеты, заверенные копии необходимых документов и другую документацию), устные и письменные объяснения от должностных и ответственных лиц Общества по вопросам, возникающим в ходе осуществления внутреннего аудита;</p>	<p>3.1. Ichki audit xizmati quyidagi huquqlarga egadir:</p> <p>3.1.1. Ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo‘ladigan masalalar bo‘yicha Jamiyatning hujjatlarini (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, ma‘lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), mansabdor va mas‘ul shaxslaridan og‘zaki va yozma tushuntirishlar olish;</p>

<p>3.1.2. привлекать соответствующих специалистов Общества для оказания содействия в проведении внутреннего аудита;</p> <p>3.1.3. осуществляет внутренний контроль, в том числе за операциями, проведенными с юридическими лицами, более 50 % уставного капитала которых принадлежит Обществу.</p> <p>3.2. Служба внутреннего аудита обязана:</p> <p>3.2.1. соблюдать при осуществлении внутреннего аудита требования настоящего Положения и иных актов законодательства;</p> <p>3.2.2. составлять отчеты в соответствии с требованиями, настоящего Положения и законодательства;</p> <p>3.2.3. проверять достоверность показателей финансовой и статистической отчетности;</p> <p>3.2.4. соблюдать конфиденциальность информации, полученной при осуществлении внутреннего аудита;</p> <p>3.2.5. в случае обнаружения фактов, свидетельствующих о причинении предприятию убытков его должностными лицами и другими работниками, незамедлительно сообщать об этом Наблюдательному совету Общества и осуществлять соответствующую запись в аудиторском отчете;</p> <p>3.2.6. участвовать в проведении инвентаризации активов и контроле за своевременностью ее осуществления в установленном законодательством порядке.</p> <p>3.3. Служба внутреннего аудита может иметь и иные обязанности в соответствии с законодательством и уставом Общества.</p>	<p>3.1.2. Ichki auditni o'tkazishga ko'maklashish uchun Jamiyatning tegishli mutaxassislarini jalb etish;</p> <p>3.1.3. Ichki nazoratni, shu jumladan, ustav kapitalining 50 foizdan ortiq ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalarning, amalga oshirish huquqiga ega.</p> <p>3.2. Ichki audit xizmati quyidagilarga majbur:</p> <p>3.2.1. Ichki auditni amalga oshirishda mazkur Nizom va boshqa qonunchilik talablariga rioya qilish;</p> <p>3.2.2. Mazkur Nizomda va qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq hisobotlar tuzish;</p> <p>3.2.3. Moliya va statistika hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchliligini tekshirish;</p> <p>3.2.4. Ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya qilish;</p> <p>3.2.5. Jamiyatga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan zarar yetkazilganidan dalolat beruvchi holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda darhol Jamiyatning Kuzatuv kengashiga xabar berish va auditorlik hisobotida tegishli yozuvni qayd etish;</p> <p>3.2.6. Aktivlarni xatlovdan o'tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish.</p> <p>3.3. Ichki audit xizmati qonunchilikka va Jamiyatning ustaviga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.</p>
<p>Раздел - IV. Требования к Службе внутреннего аудита</p>	<p>IV bo'lim. Ichki audit xizmatiga qo'yiladigan talablar</p>
<p>4.1. Сотрудники Службы внутреннего аудита должны быть включены в штатное расписание предприятия и иметь сертификат внутреннего аудитора.</p> <p>4.2. Сотрудники службы внутреннего аудита назначаются наблюдательным советом предприятия или основателя (общее собрание акционеров, общее собрание участников) на основе отбора в соответствии с устанавливаемым порядком и условиями.</p> <p>4.3. Сотрудники Службы внутреннего аудита должны иметь стаж практической работы (в том числе по совместительству) в сфере бухгалтерского учета, аудита, финансового или налогового контроля не менее двух лет из последних десяти, и отвечать одному из следующих требований:</p> <p>4.3.1. иметь сертификат аудитора;</p> <p>4.3.2. иметь высшее экономическое образование, полученное в высших образовательных учреждениях Республики Узбекистан либо в образовательных учреждениях иностранного государства и в соответствии с законодательством Республики Узбекистан признанное эквивалентным образованию в Республике Узбекистан.</p>	<p>4.1. Ichki audit xizmati xodimlari korxonaning shtatlar jadvaliga kiritilishi va ichki auditor sertifikatiga ega bo'lish shart.</p> <p>4.2. Ichki audit xizmati xodimlari korxonada kuzatuv kengashi yoki muassis (aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, ishtirokchilar umumiy yig'ilishi) tomonidan belgilanadigan tartib va shartlarga asosan tanlov asosida tayinlanadi.</p> <p>4.3. Ichki audit xizmati xodimlari oxirgi o'n yilning kamida ikki yilida buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy (shu jumladan o'rindoshlik bo'yicha) ish stajiga ega bo'lishi va quyidagi talablardan bittasiga javob berishi kerak:</p> <p>4.3.1. auditor sertifikatiga ega bo'lish;</p> <p>4.3.2. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida, yoxud O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat ta'lim muassasasida olingan oliy iqtisodiy ma'lumotga ega bo'lish.</p>

<p>4.4. Порядок сертификации сотрудников Службы внутреннего аудита определяется республиканскими профессиональными общественными объединениями аудиторов по согласованию с Министерством финансов Республики Узбекистан.</p> <p>4.5. Численность сотрудников Службы внутреннего аудита определяется наблюдательным советом Общества в количестве не менее двух сертифицированных внутренних аудиторов.</p> <p>4.6. Службой внутреннего аудита руководит ее руководитель, имеющий сертификат внутреннего аудитора.</p> <p>4.7. Ежегодно руководитель Службы внутреннего аудита составляет план работы и годовую смету расходов Службы внутреннего аудита и представляет ее Наблюдательному совету Общества для утверждения.</p> <p>4.8. Профессиональный уровень сотрудников Службы внутреннего аудита должен поддерживаться посредством повышения их квалификации на систематической основе в образовательных учреждениях, имеющих соответствующую лицензию.</p> <p>4.9. Сотрудники Службы внутреннего аудита подлежат ежегодной аттестации Наблюдательным советом Общества согласно порядку проведения аттестации сотрудников Службы внутреннего аудита.</p>	<p>4.4. Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi auditorlarning respublika professional jamoatchilik birlashmalari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadi.</p> <p>4.5. Ichki audit xizmati xodimlarining soni jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan sertifikatsiyalangan ikki nafardan kam bo'lmagan ichki auditorlardan iborat.</p> <p>4.6. Ichki audit xizmatiga ichki auditor sertifikatiga ega bo'lgan uning rahbari boshchilik qiladi.</p> <p>4.7. Har yili Ichki audit xizmati rahbari Ichki audit xizmati ish rejasini va xarajatlarning yillik smetasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun Jamiyatning Kuzatuv kengashiga taqdim etadi.</p> <p>4.8. Ichki audit xizmati xodimlarining kasb darajasi tegishli litsenziyaga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida muntazamlilik asosida ularning malakasini oshirish vositasida saqlanishi kerak.</p> <p>4.9. Ichki audit xizmati xodimlari Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan har yili attestatsiyadan o'tkazilishi kerak.</p>
<p>Раздел V. Независимость Службы внутреннего аудита</p>	<p>V bo'lim. Ichki audit xizmatining mustaqilligi</p>
<p>5.1. Основными условиями независимости Службы внутреннего аудита являются:</p> <p>5.1.1. назначение и освобождение руководителя Службы внутреннего аудита и ее сотрудников от занимаемой должности, установление им размеров заработной платы и других выплат по решениям Наблюдательного совета Общества;</p> <p>5.1.2. непосредственное подчинение Наблюдательному совету (комитету по аудиту) Общества.</p> <p>5.1.3. Служба внутреннего аудита и внешний аудитор должны быть независимыми по отношению друг к другу, а также имеют право обмениваться информацией и координировать свои действия.</p>	<p>5.1. Quyidagilar Ichki audit xizmati mustaqilligining asosiy shartlari hisoblanadi:</p> <p>5.1.1. Ichki audit xizmati rahbarini va uning xodimlarini lavozimga tayinlash va egallab turgan lavozimidan ozod etish, Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari bo'yicha ularga ish haqi miqdorini va boshqa to'lovlarni belgilash;</p> <p>5.1.2. Jamiyat Kuzatuv kengashiga bevosita bo'ysunish.</p> <p>5.1.3. Ichki audit xizmati va tashqi auditor bir-birlariga nisbatan mustaqil bo'lishlari lozim, shuningdek, o'zaro axborot almashishga va o'zlarining harakatlarini muvofiqlashtirishga haqli.</p>
<p>Раздел VI. Требования к проведению внутреннего аудита и составлению сводного отчета по результатам его проведения</p>	<p>VI bo'lim. Ichki audit o'tkazishga va uni o'tkazish natijalari bo'yicha yig'ma hisobot tuzishga qo'yiladigan talablar</p>
<p>6.1. Внутренний аудит осуществляется только сотрудниками Службы внутреннего аудита путем проведения проверок и мониторинга:</p> <p>6.1.1. хода выполнения утвержденного бизнес-плана;</p> <p>6.1.2. соблюдения принципов корпоративного управления;</p> <p>6.1.3. состояния бухгалтерского учета и финансовой отчетности;</p> <p>6.1.4. правильности исчисления и уплаты налогов и других обязательных</p>	<p>6.1. Ichki audit faqat Ichki audit xizmati xodimlari tomonidan tekshiruvlar va monitoringlar orqali amalga oshiriladi:</p> <p>6.1.1. Tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;</p> <p>6.1.2. Korportiv boshqarish prinsiplariga rioya qilinishini;</p> <p>6.1.3. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;</p> <p>6.1.4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini;</p>

<p>платежей;</p> <p>6.1.5. соблюдения законодательства при осуществлении финансово-хозяйственной деятельности;</p> <p>6.1.6. состояния активов;</p> <p>6.1.7. состояния внутреннего контроля.</p> <p>6.2. Наблюдательным советом Общества могут быть определены иные направления осуществления проверок в соответствии с законодательством, исходя из профиля деятельности Общества.</p> <p>6.3. По результатам проведенных проверок составляются соответствующие отчеты, подписываемые сотрудником (сотрудниками), непосредственно их проводившим.</p> <p>6.4. При этом:</p> <p>6.4.1. отчет о результатах проверки хода выполнения бизнес-плана должен включать:</p> <p>а) анализ количественных и качественных показателей его выполнения;</p> <p>б) описание выявленных причин в случае не обеспечения его выполнения, с персональным указанием виновных должностных лиц;</p> <p>6.4.2. отчет о результатах проверки соблюдения принципов корпоративного управления должен включать:</p> <p>а) анализ результативности принимаемых решений органами управления Общества, соблюдения законных прав и интересов его акционеров;</p> <p>б) описание фактов нарушения законодательства в сфере корпоративного управления (соблюдение учредительных документов, проведение общих собраний и заседаний органов управления Общества, правильность начисления и своевременность выплаты дивидендов и т. д.);</p> <p>6.4.3. отчет о результатах проверки состояния бухгалтерского учета и финансовой отчетности Общества должен включать:</p> <p>а) оценку соблюдения установленного порядка ведения бухгалтерского учета и составления финансовой отчетности;</p> <p>б) описание выявленных нарушений установленного порядка ведения бухгалтерского учета и подготовки финансовой отчетности;</p> <p>6.4.4. отчет о результатах проверки правильности исчисления и уплаты налогов и других обязательных платежей должен включать:</p> <p>а) оценку правильности составленных и представленных в соответствующие органы расчетов налогов и других обязательных платежей;</p> <p>б) описание фактов нарушения установленного порядка исчисления и уплаты налогов и других обязательных платежей, отклонений при определении налогооблагаемой базы;</p> <p>6.4.5. отчет о результатах проверки соблюдения Обществом законодательства при осуществлении финансово-хозяйственных операций должен включать:</p>	<p>6.1.5. Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonunchilikka rioya etilishini;</p> <p>6.1.6. Aktivlarning holatini;</p> <p>6.1.7. Ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo'li bilan faqat Ichki audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.</p> <p>6.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat faoliyatining ixtisosidan kelib chiqib qonunchilikka muvofiq tekshirishni o'tkazishning boshqa yo'nalishlari belgilanishi mumkin.</p> <p>6.3. O'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha bevosita uni o'tkazgan xodim (xodimlar) tomonidan imzolanadigan tegishli hisobotlar tuziladi.</p> <p>6.4. Bunda:</p> <p>6.4.1. Biznes-reja bajarilishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:</p> <p>а) uning bajarilishi miqdor va sifat ko'rsatkichlari tahlili;</p> <p>б) uning bajarilishi ta'minlanmagan taqdirda aybdor mansabdor shaxslar shaxsan ko'rsatilgan holda aniqlangan sabablar bayoni;</p> <p>6.4.2. Korporativ boshqarish prinsiplariga rioya qilishni tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:</p> <p>а) Jamiyatning boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning samaraliligi, uning aksiyadorlarining qonuniy huquq va manfaatlariga rioya etilishi tahlili;</p> <p>б) korporativ boshqarish sohasida qonunchilik buzilishi holatlari bayoni (ta'sis hujjatlariga rioya qilish, umumiy yig'ilishlar va Jamiyat boshqaruv organlari majlislari o'tkazilishi, dividendlar to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi va hokazolar);</p> <p>6.4.3. Jamiyatning buxgalteriya hisobi va moliya hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:</p> <p>а) buxgalteriya hisobini yuritish va moliya hisobotini tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;</p> <p>б) aniqlangan buxgalteriya hisobotini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibi buzilishining tavsifi;</p> <p>6.4.4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:</p> <p>а) tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va majburiy to'lovlar hisob-kitobi to'g'riligini baholash;</p> <p>б) soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning belgilangan tartibi buzilishi holatlarini, soliq solinadigan bazani belgilashda chetga chiqishlarni bayon qilish;</p> <p>6.4.5. moliya-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda Jamiyat tomonidan qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:</p>
---	---

<p>а) оценку соответствия осуществленных Обществом финансово-хозяйственных операций законодательству;</p> <p>б) описание выявленных в ходе внутреннего аудита несоответствий законодательству осуществленных Обществом финансово-хозяйственных операций;</p> <p>6.4.6. отчет о результатах проверки состояния внутреннего контроля должен включать:</p> <p>а) описание системы внутреннего контроля и имеющихся в ее функционировании недостатков;</p> <p>б) данные о состоянии исполнительской дисциплины в структурных подразделениях Общества, имеющихся недостатках в работе конкретных его сотрудников.</p> <p>6.5. Результаты проверки состояния активов должны основываться на инвентаризации активов и включать сведения об их движении, фактическом наличии и сохранности.</p> <p>6.6. Также все отчеты по проводимым проверкам должны содержать итоговую часть, включающую оценку деятельности Правления Общества и его структурных подразделений, рекомендации по устранению выявленных отклонений и нарушений, полный пакет подтверждающих документов.</p> <p>6.7. По итогам проведенного внутреннего аудита составляется сводный отчет, подписываемый руководителем Службы внутреннего аудита.</p> <p>6.8. Сводный отчет должен включать:</p> <p>6.8.1. аналитическую часть;</p> <p>6.8.2. итоговую часть;</p> <p>6.8.3. полный пакет подтверждающих документов.</p> <p>6.9. Аналитическая часть сводного отчета должна включать обобщенную информацию о результатах проверок, проведенных сотрудниками внутреннего аудита.</p> <p>6.10. Итоговая часть отчета должна содержать:</p> <p>6.10.1. общую оценку деятельности Правления и структурных подразделений Общества, а также его ликвидности;</p> <p>6.10.2. рекомендации Службы внутреннего аудита по устранению выявленных отклонений и нарушений, а также обобщенные предложения по повышению эффективности финансово-хозяйственной деятельности Общества, совершенствованию корпоративного управления.</p> <p>6.11. Сводный отчет должен быть подготовлен в течение 10 дней после завершения внутреннего аудита.</p> <p>6.12. Сводные отчеты должны представляться непосредственно Наблюдательному совету для рассмотрения и последующего утверждения. Копии отчетов после их утверждения должны представляться Правлению Общества.</p> <p>6.13. Правление Общества обязано принимать все меры для устранения</p>	<p>а) Jamiyat tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonunchilikka muvofiqqligini baholash;</p> <p>б) Ichki audit davomida aniqlangan Jamiyat tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonunchilikka nomuvofiqqligini bayon qilish;</p> <p>6.4.6. Ichki nazoratning holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:</p> <p>а) Ichki nazorat tizimini va uning faoliyat ko'rsatishidagi mavjud kamchiliklarni bayon etish;</p> <p>б) Jamiyatning tarkibiy bo'linmalaridagi ijro intizomining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning aniq xodimlari ishidagi mavjud kamchiliklar.</p> <p>6.5. Aktivlarning holatini tekshirish natijalari aktivlarni xatlovdan o'tkazishning asoslanishini hamda ularning harakati, amalda mavjudligi va saqlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.</p> <p>6.6. Shuningdek, o'tkaziladigan tekshirishlar bo'yicha barcha hisobotlarda Jamiyat boshqaruvi va uning tarkibiy bo'linmalaridagi faoliyati baholanishini, aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etishga doir tavsiyalarini, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga oladigan yakuniy qism bo'lishi kerak.</p> <p>6.7. O'tkazilgan ichki audit yakunlari bo'yicha Ichki audit xizmati rahbari tomonidan imzolanadigan yig'ma hisobot tuziladi.</p> <p>6.8. Yig'ma hisobot:</p> <p>6.8.1. Tahliliy qismni;</p> <p>6.8.2. Yakuniy qismni;</p> <p>6.8.3. Tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga olishi kerak.</p> <p>6.9. Yig'ma hisobotning tahliliy qismi ichki audit xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga olishi kerak.</p> <p>6.10. Hisobotning yakuniy qismi:</p> <p>6.10.1. Jamiyatning boshqaruvi va tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga, shuningdek, likvidligiga umumiy bahoni;</p> <p>6.10.2. Aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etish bo'yicha Ichki audit xizmatining tavsiyalarini hamda Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga, korporativ boshqarishni takomillashtirishga doir umumlashtirilgan takliflarni o'z ichiga olishi kerak.</p> <p>6.11. Yig'ma hisobot ichki audit yakunlangandan keyin 10 kun mobaynida tugallanishi zarur.</p> <p>6.12. Yig'ma hisobotlar bevosita Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish va keyinchalik tasdiqlash uchun taqdim etilishi kerak. Hisobotlar nusxalari tasdiqlangandan keyin Jamiyat Boshqaruvida taqdim etilishi kerak.</p> <p>6.13. Jamiyatning Boshqaruvi ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf</p>
---	---

<p>недостатков, выявленных в результате внутреннего аудита.</p> <p>6.14. Служба внутреннего аудита должна установить контроль за своевременным и надлежащим исполнением мер по устранению нарушений, обнаруженных в ходе проверки, а также по повышению эффективности финансово-хозяйственной деятельности Общества в целом.</p>	<p>etish barcha chora-tadbirlarini ko'rish shart.</p> <p>6.14. Ichki audit xizmati tekshirish davomida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, shuningdek, umuman Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va zarur darajada bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishi kerak.</p>
<p>Раздел VII. Ответственность Службы внутреннего аудита</p>	<p>VII bo'lim. Ichki audit xizmatining javobgarligi</p>
<p>7.1. Сотрудники Службы внутреннего аудита несут ответственность за:</p> <p>7.1.1. искажение результатов проведенных ими проверок;</p> <p>7.1.2. несоблюдение конфиденциальности информации, составляющей коммерческую тайну Общества, которая была предоставлена им или стала известна в связи с выполнением ими служебных обязательств;</p> <p>7.1.3. обеспечение сохранности и возврата полученных документов.</p> <p>7.2. Служба внутреннего аудита отвечает за оценку принятых мер по устранению нарушений, обнаруженных в ходе аудиторской проверки, и по повышению эффективности финансово-хозяйственной деятельности Общества.</p> <p>7.3. Наблюдательный совет Общества ежеквартально заслушивает отчет Службы внутреннего аудита о результатах проверок, с принятием мер по устранению выявленных недостатков и повышению эффективности финансово-хозяйственной деятельности Общества.</p> <p>7.4. Наблюдательный совет предприятия назначает сотрудников Службы внутреннего аудита на конкурсной основе, а также досрочно прекращает их полномочия в случае выявления недостатков, связанных с деятельностью сотрудников Службы внутреннего аудита при проверке аудиторских или контролирующих органов.</p> <p>7.5. Недостатки, связанные с деятельностью Службы внутреннего аудита предприятия, определенные по результатам проверки Аудитора или контролирующих органов, приводят к преждевременному прекращению компетенции сотрудников (сотрудника) службы внутреннего аудита.</p>	<p>7.1. Ichki audit xizmati xodimlari:</p> <p>7.1.1. O'zlari o'tkazgan tekshirishlar natijalari buzib ko'rsatilganligi;</p> <p>7.1.2. Ularga taqdim etilgan yoki ular tomonidan xizmat vazifalarining bajarilishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan Jamiyatning sirini tashkil etadigan axborotning maxfiyligiga rioya qilinmaganligi;</p> <p>7.1.3. Olingan hujjatlarning saqlanishi va qaytarilishi ta'minlanishi uchun javob beradilar.</p> <p>7.2. Ichki audit xizmati auditorlik tekshirishlari davomida aniqlangan qonun buzishlarni bartaraf etish va Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlarga baho berilishi uchun javob beradi.</p> <p>7.3. Jamiyatning Kuzatuv kengashi har chorakda Ichki audit xizmatining tekshirishlar natijalari to'g'risidagi hisobotini eshitadi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi.</p> <p>7.4. Korxonaning kuzatuv kengashi ichki audit xizmati xodimlarini tanlov asosida tayinlaydi, shuningdek, auditorlik yoki nazorat qiluvchi organlar tekshiruvida ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati bilan bog'liq kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularning vakolatini muddatidan oldin tugatadi.</p> <p>7.5. Auditor yoki nazorat qiluvchi organlar tekshiruvi natijasiga ko'ra aniqlangan korxonada ichki audit xizmati faoliyati bilan bog'liq kamchiliklar ichki audit xizmati xodimlari (xodimi) vakolatini muddatidan oldin tugatishga olib keladi.</p>
<p>Раздел VIII. Заключительные положения</p>	<p>VIII bo'lim. Yakuniy qoidalar</p>
<p>8.1. Настоящее Положение вступает в силу со дня его утверждения Наблюдательным советом Общества.</p> <p>8.2. В случае если одно из правил настоящего положения утратило силу, это правило не является причиной для приостановления других правил.</p> <p>8.3. Если действующими законодательными актами Республики Узбекистан либо уставом общества установлены иные положения, чем предусмотрено настоящим Положением, то применяются правила действующих законодательных актов Республики Узбекистан и устава Общества.</p> <p>8.4. С даты утверждения настоящего положения Наблюдательным советом</p>	<p>8.1. Mazkur Nizom Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.</p> <p>8.2. Agar mazkur Nizomni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.</p> <p>8.3. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari yoxud Jamiyat ustavida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Jamiyat ustavi qoidalari qo'llaniladi.</p> <p>8.4. Ushbu nizom Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab avval</p>

ранее утвержденное положение «О службе внутреннего аудита АО «Узкимёсаноат» и внесенные в него изменения и дополнения утрачивают силу.	tasdiqlangan “O‘zkiyosanoat” AJning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizom va unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar o‘z kuchini yo‘qotadi.
--	---